



*O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI*

## ***REFERAT***

*Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti  
o'zbek filologiyasi fakulteti*

*2-kurs 202-guruh talabasi Boymatova Charos Muzaffar  
qizining*

*“Tahliliy o’qish” fanidan tayyorlagan*

*Ilmiy rahbar: Tohirov S*

**Mavzu:** Tog`ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida Dehqonqul obrazi.

**Reja:**

- 1) Tog`ay Murod hayoti va ijodi.
- 2) “Otamdan qolgan dalalar” asarining g`oyaviy va badiiy xususiyati.
- 3) Dehqonqul obrazi.

## Hayoti va adabiy faoliyati

Iste'dodli adib Tog`ay Murod adabiyotimizning qutlug` dargohiga 70-adabiy yillarning oxiri va 80-yillarning boshlarida kirib kelgan. Uning asl ism-sharifi Tog`aymurod Mengnorov bo`ib, Tog`ay Murod adabiy taxallusidir. U 1948 yilda Surxondaryo viloyati Denov tumanining Xo`ja Soat qishlog`ida dunyoga kelgan.

O`zi tug`ilib o`sgan qishlog`idagi o`rta maktabni 1966 yilda tugatib, Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil olgan. Uni 1972 yilda muvaffaqiyatli yakunlab, respublika radiosida muharrirlik qilgan. 1976-1978 yillarda “O`zbekiston fizkulturachisi”, 1982-1984 yillarda “Fan va turmush” jurnalida faoliyat ko`rsatgan.




1985-1987 yillarda Moskvadagi Adabiyot institutida o`qigan. Xuddi shu yillarda u kichik-kichik hikoyalar yoza boshladi.

Tog'ay Murod 2003 yilda vafot etgan.

Tog'ay Murod iste'dodli tarjimon sifatida 1974-1975 yillarda J.Londonning "Boyning qizi" dramasi va bir necha hikoyalarini tarjima qildi. 1989 yilda Ye.Seton-Tompsonning mashhur "Yovvoyi yo`rg`a" kitobini o`zbekchalashtirdi. Uning "Otamdan qolgan dalalar" asari asosida ikki qismdan iborat film yaratilgan. Unga 1999 yilda "O'zbekiston xalq yozuvchisi" degan yuksak unvon berilgan.

1976 yilga kelib Tog`ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" degan ilk qissasi "Sharq yulduzi" jurnalida chop etilgach, kitobxonlar og`ziga tushadi. Ketma-ket adibning "Ot kishnagan oqshom" (1979), "Oydinda yurgan odamlar" (1980) va "Momo Yer qo`shig`i" (1985) kabi o'zbek milliy qissachiligining yangi namunalari dunyoga keladi. Ular ham yuksak baholanib, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Oybek nomidagi yillik mukofotiga sazovor bo'ldi.



1985-1987 yillarda Moskvadagi Adabiyot institutida o`qigan. Xuddi shu yillarda u kichik-kichik hikoyalar yoza boshladi.

Tog'ay Murod 2003 yilda vafot etgan.

Tog'ay Murod iste'dodli tarjimon sifatida 1974-1975 yillarda J.Londonning “Boyning qizi” dramasi va bir necha hikoyalarini tarjima qildi. 1989 yilda Ye.Seton-Tompsonning mashhur “Yovvoyi yo`rg`a” kitobini o`zbekchalashtirdi. Uning “Otamdan qolgan dalalar” asari asosida ikki qismdan iborat film yaratilgan. Unga 1999 yilda “O'zbekiston xalq yozuvchisi” degan yuksak unvon berilgan.



1976 yilga kelib Tog`ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” degan ilk qissasi “Sharq yulduzi” jurnalida chop etilgach, kitobxonlar og`ziga tushadi. Ketma-ket adibning “Ot kishnagan oqshom” (1979), “Oydinda yurgan odamlar” (1980) va “Momo Yer qo`shig`i” (1985) kabi o'zbek milliy qissachiligining yangi namunalari dunyoga keladi. Ular ham yuksak baholanib, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Oybek nomidagi yillik mukofotiga sazovor bo'ldi.

## Ravishdosh shakli

“Men, - deb yozgan edi u, - faqat bir maqsadni ko`zladim: o`ttiz-o`ttiz besh yoshlargacha jahon adabiyotini o`qish, faqat o`qish bilan band bo`ldim. Qo`l qotib qolmasin uchun mayda-mayda hikoyalar mashq qilib turdim. Men shu niyat yo`lida imorat solmadim, mashina olmadim, mansab egallamadim, shon-shuhrat izlamadim”.



ЮРТ ОРУ  
Суронжигун Уфохун





Tog`ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanini o`qir ekanmiz asar o`z yo`nalishi, uslubi hamda tiliga ega ekanligini kuzatamiz. Asarni dastlab o`qiy boshlaganimizda, undagi takror so`zlarning nihoyat darajada ko`pligi bizga biroz g`alati tuyulgandek bo`ladi, lekin asar ichiga qanchalik chuqur kirib borganimiz sari ushbu takror so`zlar asarning yana-da o`qishliligini ta`minlaganligiga guvoh bo`lamiz. Romanning ana shu takror so`zlarga asoslanishi uni boshqa asarlardan ajratib turadigan xususiyatidir.





Beshik  
mozorim  
bo'ldi, dala  
mozoristonim  
bo'ldi...




Dehqonqul xotini erta-yu kech bag'riga bosib yashagan beshikni olib, endi bu xonadonda farzand tug'ilmaydi, u endi bizgkerak emas deb o'ylaydi. Beshik ko'zlariga ayolining a tobuti bo'lib ko'rinadi, ichida ayoli 60 % kuyib yotgandek go'yo. Bu sho'rlik ayol dunyoga kelib nima ko'rdi o'zi, beshik ko'rdi, dala ko'rdi. Kunduzi dala ko'rdi, kechasi beshik ko'rdi. Dehqonqul xotining hayotlik vaqtida oddiy iltimoslarini ham bajara olmadi. U bularning barchasini tushinib turardi , ammo qo'lidan hech ish kelmaslini juda kech anglab yetdi.





Dehqonqul xotini erta-yu kech bag'riga bosib yashagan beshikni olib, endi bu xonadonda farzand tug'ilmaydi, u endi bizga kerak emas deb o'ylaydi. Beshik ko'zlariga ayolining tobuti bo'lib ko'rinadi, ichida ayoli 60 % kuyib yotgandek go'yo. Bu sho'rlik ayol dunyoga kelib nima ko'rdi o'zi, beshik ko'rdi, dala ko'rdi. Kunduzi dala ko'rdi, kechasi beshik ko'rdi. Dehqonqul xotining hayotlik vaqtida oddiy iltimoslarini ham bajara olmadi. U bularning barchasini tushinib turardi, ammo qo'lidan hech ish kelmaslini juda kech anglab yetdi.



Dehqonqul sudda so'ngso'z berilganda ham oxirgi gapi “dalalarimni bir ko'rib ketayin ” bo'ladi. U hatto shu damda ham bolam demadi, oilam, yurtim , qarindoshim emas, dalam dedi.

Mehmon kelganda “mehmon atoyi xudo ” deb ulug'laydi, bolalarining risqini qiyib bo'lsa – da , ularni xush kutib oladi. Xotining oddiy iltimoslarini bajara olish ham qo'lidan kelmadi. Faqatgina uni yo'qotganda endi kech bo'lganligini tushunib yetadi.

Dehqonqul uchun oilaga sadoqat , og'ir damda qolganda ham yurtini sotmaydigan xislatlar yod emas.



“Men o‘zbekka haykal qo‘yaman !”  
“Men o‘zbekka haykal qo‘yaman !”-  
Eshitildi na‘ra, hayqiriq,  
O‘zbeklikdan g‘urur tuyaman.

Oydin tunda yurgan odamlar,  
Ot kishnagan sokin oqshomlar,  
Yulduzlar ham mangu yonadi,  
Dehqon o‘tgan “Ketmon” bobomlar.

“Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”,  
Lek ustunday turib bo‘lmaydi.  
Balki o‘lar sotqin, xoinlar,  
El farzandi sira o‘lmaydi !

Tog‘ay Murod o‘l magay go‘yo,  
Mangulikka qilganday da‘vo.  
Tirik haykal bo‘lib turibdi  
O‘zi qo‘ygan haykallararo.

Farrux Jabborov



**E'TIBORINGIZ UCHUN  
RAHMAT!**

